

“BOBURNOMA”DA HAM SHOIR, HAM HUKMDORLAR FAOLIYATI HAQIDA MULOHAZALAR

Ismigul Samatova,

Qarshi davlat universiteti magistranti

ismigulsamatova22@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida hukmdorlik va ijodkorlik fazilatlarini o‘zida mujassam etgan tarixiy shaxslar faoliyati tahlil qilinadi. Asarda Haydar Mirzo, Ahmad Hojibek, Sulton Mahmud Mirzo, Boysung‘ur Mirzo hamda Muhammad Shayboniyxon kabi shaxslarning siyosiy faoliyati bilan bir qatorda adabiy iste’dodi, she’riyatga munosabati va ijodiy merosi yoritilgan. Boburning shoir va hukmdorlarni baholashdagi mezonlari, ularga xolis hamda tanqidiy munosabati ilmiy tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Bobur, Boburnoma, shoir-hukmdor, Haydar Mirzo, Ahmad Hojibek, Boysung‘ur Mirzo, Shayboniyxon, adabiy meros, tarixiy shaxs, badiiy baho.

Аннотация. В данной статье анализируются размышления Захириддина Мухаммада Бабур о деятельности исторических личностей, сочетавших в себе качества правителя и поэта, представленные в произведении «Бабурнаме». Особое внимание уделяется характеристике Хайдар Мирзы, Ахмад Ходжибека, Султана Махмуда Мирзы, Байсунгура Мирзы и Мухаммада Шайбани-хана. Рассматриваются их государственная деятельность, литературные способности, отношение к поэзии и творческое наследие. Анализируются критерии оценки Бабуром личности правителей-поэтов, а также его объективный и критический подход к ним. В результате исследования обосновывается значение «Бабурнаме» как важного историко-литературного источника по изучению деятельности поэтов-правителей.

Ключевые слова: Бабур, Бабурнаме, поэт-правитель, Хайдар Мирза, Ахмад Ходжибек, Байсунгур Мирза, Шайбани-хан, литературное наследие, историческая личность, художественная оценка.

Abstract. This article examines Zahiriddin Muhammad Babur’s views on historical figures who combined the qualities of both ruler and poet in the “Baburnama”. Particular attention is paid to the personalities of Haydar Mirza, Ahmad Hojibek, Sultan Mahmud Mirza, Baysunghur Mirza, and Muhammad Shaybani Khan. Along with their political activities, their literary talent, attitude toward poetry, and creative heritage are analyzed. The study also explores Babur’s criteria for evaluating poet-rulers and his objective as well as critical approach toward them. The research demonstrates that the “Baburnama” serves as an important literary and historical source for studying the activities of poet-rulers.

Keywords: Babur, Baburnama, poet-ruler, Haydar Mirza, Ahmad Hojibek, Baysunghur Mirza, Shaybani Khan, literary heritage, historical figure, literary evaluation.

Kirish. Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat yirik davlat arbobi va sarkarda, balki nozik didli ijodkor, adabiyotshunos hamda tarixnavis sifatida o‘zbek madaniyati va ma’naviyati taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Uning “Boburnoma” asari XV–XVI asrlar ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy hayotini yorituvchi nodir manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur asarda tarixiy voqealar bayoni bilan bir qatorda, o‘sha davrda yashab faoliyat ko‘rsatgan hukmdorlar, shahzodalar, shoirlar va davlat arboblarining hayoti hamda faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. “Boburnoma”ning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda ayrim tarixiy shaxslar ham hukmdor, ham ijodkor sifatida tavsiflanadi. Bobur bunday shaxslarni baholashda ularning siyosiy mavqeyi yoki nasl-

nasabidan ko'ra, insoniy fazilatlari, ma'naviy dunyosi, ilm-fanga munosabati va adabiy iste'dodiga alohida e'tibor qaratadi. Asarda Haydar Mirzo, Ahmad Hojibek, Sulton Mahmud Mirzo, Boysung'ur Mirzo hamda Muhammad Shayboniyxon singari shaxslarning hukmdorlik faoliyati bilan bir qatorda she'riyat va san'atga munosabati ham yoritilgan. Bugungi kunda "Boburnoma"da aks etgan shoir-hukmdorlar faoliyatini o'rganish nafaqat tarixiy haqiqatlarni aniqlash, balki temuriylar va shayboniylar davridagi adabiy-madaniy muhitni chuqurroq anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur maqolada "Boburnoma"da tilga olingan shoir-hukmdorlar faoliyati, ularning ijodiy merosi hamda Boburning ularga bergan baholari ilmiy tahlil qilinadi.

"Boburnoma"da XV–XVI asrlar siyosiy va madaniy hayoti ham batafsil tasvirlangan. Asarda 1494–1530-yillar oralig'ida Movarounnahr, Xuroson va Hindistonda sodir bo'lgan voqealar batafsil yoritilgan. Biroq Bobur voqealar tasviri bilan cheklanib qolmay, ular markazida turgan tarixiy shaxslarning hayoti, faoliyati, ma'naviy dunyosi hamda ijodiy salohiyatiga ham alohida e'tibor qaratadi. Muallif asarda Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Badiuzzamon Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Boysung'ur Mirzo kabi hukmdor va shahzodalar haqida ma'lumot berar ekan, ularning davlat boshqaruvidagi faoliyati bilan bir qatorda adabiy iste'dodi, she'riyatga munosabati va ijodiy merosini ham yoritadi. "Boburnoma" shoir-hukmdorlar faoliyatini o'rganishda muhim adabiy-tarixiy manba hisoblanadi. Bobur shoir-hukmdorlarni baholashda ularning siyosiy mavqeyiga emas, avvalo, insoniy fazilatlari va ijodiy salohiyatiga e'tibor beradi. U ayrim hukmdorlarning she'riy iste'dodini e'tirof etsa, ayrimlarining ijodiga tanqidiy munosabat bildiradi. Asarda hukmdorlik va ijodkorlik fazilatlari uyg'unlashgan shaxslarning o'ziga xos badiiy portretlari yaratilgan.

Adabiyotlar sharhi. "Boburnoma" va unda aks etgan tarixiy shaxslar faoliyati o'zbek adabiyotshunosligida ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, V.Zohidov, B.Valixo'jayev, H.Qudratullayev, R.Vohidov, E.Ochilov kabi olimlar Boburning adabiy-estetik qarashlari, tarixnavislik mahorati hamda asardagi shaxslar talqiniga oid muhim ilmiy xulosalarni ilgari surganlar. V.Zohidov Boburning ilmiy-adabiy merosini tahlil qilar ekan, "Boburnoma"ning tarixiy va badiiy qimmatiga alohida e'tibor qaratadi. B. Valixo'jayev Boburning adabiy-tanqidiy qarashlarini o'rganib, uning ijodkorlarga baho berish mezonlarini yoritadi. H. Qudratullayev esa Boburning adabiy-estetik olamini tadqiq etib, asardagi shoir va adiblar haqidagi mulohazalarini tahlil qiladi. Biroq mavjud tadqiqotlarda "Boburnoma"da ham shoir, ham hukmdor sifatida faoliyat yuritgan shaxslarning obrazlari va ularga Bobur tomonidan berilgan baholar alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur maqola ushbu masalani yoritishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, qiyosiy-tahliliy, tavsifiy hamda biografik metodlardan foydalanildi. "Boburnoma" matnida hukmdor va ijodkor sifatida tavsiflangan shaxslar haqidagi ma'lumotlar saralab olindi va ilmiy tahlil qilindi.

Boburning shaxslarga bergan baholari ularning siyosiy faoliyati, ijodiy merosi va insoniy fazilatlarini nuqtaiy nazaridan o'rganildi. Shuningdek, asardagi ma'lumotlar adabiyotshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlar hamda ayrim tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilinib, muallif qarashlarining o'ziga xos jihatlari aniqlandi.

Natijalar. "Boburnoma" XV–XVI asrlarda yashagan ko'plab ijodkorlar va davlat arboblari haqida muhim ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan manbadir. Asarda ayrim hukmdor va shahzodalarning siyosiy faoliyati bilan bir qatorda ularning adabiy iste'dodi, ilm-fanga qiziqishi hamda san'atga munosabati ham yoritiladi. Bu jihat Boburning shaxslarni baholashda faqat hukmdorlik maqomiga emas, balki ularning ma'naviy va ijodiy salohiyatiga ham e'tibor qaratganini ko'rsatadi.

Jumladan, Bobur Haydar Mirzo haqida ma'lumot berar ekan, uning nafaqat siyosiy faoliyati, balki ijodiy qobiliyatlarini ham alohida qayd etadi. Muallifning yozishicha, Haydar Mirzo turli san'at va hunar turlariga qiziqqan, xattotlik, tasviriy san'at hamda harbiy mahorat borasida muayyan iste'dod sohibi bo'lgan. Bobur uning "tab'i nazmi ham bordur" deya she'riyatga moyilligini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, "Manga arzadoshti kelib edi, inshosi ham yomon emas" degan fikr orqali shahzodaning nasriy nutq va yozma ifoda borasida ham ma'lum salohiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi. Mazkur tavsifdan anglashiladiki, Bobur shoir-hukmdorlar faoliyatini baholashda ularning siyosiy mavqei bilan bir qatorda ijodiy qobiliyatlari, badiiy didi va ma'naviy dunyosiga ham alohida e'tibor qaratgan. Haydar Mirzo timsolida esa hukmdorlik va ijodkorlik fazilatlarining uyg'unlashganini ko'rish mumkin.

Bobur "Boburnoma"da nafaqat yirik hukmdorlar va mashhur shoirlar, balki davlat boshqaruvida muhim o'rin tutgan amirlar hamda ularning ijodiy salohiyati haqida ham ma'lumot beradi. Muallif shaxslarni tavsiflashda ularning siyosiy va harbiy faoliyati bilan bir qatorda adabiy iste'dodiga ham e'tibor qaratadi. Shunday shaxslardan biri Umarshayx Mirzoning amirlaridan bo'lgan Hasan Ya'qubbekdir. Bobur u haqida shunday yozadi: "Yana bir Hasan Ya'qubbek edi. Kichik ko'ngulluk, yaxshi tab'liq, chust va chaspon kishi erdi. Bu bayt aningdur:

Boz oy, ey humoyki, beto'tii xatat,

Nazdik shud ki, zor barad ustuxoni man.

Tarjimasi: Qaytib kel, ey baxt qushi, sening to'tiday xatlaringsiz mening suyaklarimni qarg'alar olib ketayozdi. Mardona kishi edi. O'qni yaxshi otar edi. Chavgonni yaxshi o'ynar edi. Xok pallani yaxshi socharar erdi. Umarshayx mirzo voqiasidin (ya'ni vafotidin) so'ng mening eshigimda sohib ixtiyor ul edi..." [1;36]. Ko'rinadiki, Hasan Ya'qubbek Bobur nazarida faqatgina harbiy-amaliy faoliyati bilan emas, balki badiiy did va she'riy iste'dod sohibi sifatida ham e'tiborga loyiq shaxs hisoblangan. Muallif uning kamtarligi, epchilligi va mardligini alohida ta'kidlar ekan, nazmga moyilligini ham qayd etadi. Bu hol "Boburnoma"da hukmdorlar va davlat arboblarning ma'naviy qiyofasi hamda adabiy salohiyatini yoritishga alohida ahamiyat

berilganini ko'rsatadi. Hasan Ya'qubbek timsolida esa davlat xizmatini ijodkorlik bilan uyg'unlashtirgan shaxs obrazi namoyon bo'ladi.

“Boburnoma”da davlat arboblari va hukmdorlar faoliyati haqida so'z yuritilar ekan, ularning adabiy iste'dodi ham alohida e'tibordan chetda qolmaydi. Shunday shaxslardan biri Ahmad Hojibekdir. Bobur uni siyosiy faoliyat bilan bir qatorda she'riyatga oshno, ma'naviy kamolot egasi sifatida tasvirlaydi. Ahmad Hojibek haqida shunday yozadi: “Yana bir Ahmad Hojibek edi. Sulton Malik Koshg'ariyning o'g'li edi. Hiri hukumatini Sulton Abusaid mirzo necha mahal munga berib edi. Obog'asi Jonibek o'lgandin so'ng, aning muchasini berib, Samarqandg'a yibordi. Xushtab' va mardona kishi edi, “Vafoiy” taxallus hilur edi. Sohob devon erdi, she'ri yomon emas edi, bu bayt aningdurkim:

Mastam, ey muhtasib, imro'z zi man dast bidor,

Ihtisobam bikun on ro'z ki yobi hushyor.

Tarjimasi: Ey muhtasib, mastman, bugun mendan qo'lingni tort, qachonki hushyor topsang, o'sha kuni tekshir. Mir Alisher Navoiy Hiridin Samarqandg'a kelgan fursatlar Ahmad Hojibek bila bo'lur edi. Sulton Husayn mirzo podshoh bo'lg'ondin so'ngra Hiriga keldi. Asru ulug' rioyat topdi...” [21;22]. Ko'rinadiki, Ahmad Hojibek nafaqat davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan arbob, balki “Vafoiy” taxallusi bilan ijod qilgan shoir ham bo'lgan. Boburning “xushtab' va mardona kishi edi” deya baho berishi uning shaxsiy fazilatlariga berilgan yuksak bahoni anglatadi. Shuningdek, “sohib devon erdi” degan qayd Ahmad Hojibekning muayyan adabiy meros qoldirganini ko'rsatadi. Uning Alisher Navoiy bilan yaqin aloqada bo'lgani va Husayn Boyqaro davrida e'tibor topgani esa siyosiy faoliyati bilan bir qatorda adabiy-madaniy muhitdagi mavqeyini ham namoyon etadi. Ahmad Hojibek timsolida “Boburnoma”da ham hukmdorlik va davlat arboblari, ham ijodkorlik fazilatlarini o'zida mujassam etgan shaxslar qiyofasi aks etgan.

“Boburnoma”da hukmdorlar faoliyatiga baho berishda Bobur ularning siyosiy mavqeyi yoki qarindoshlik rishtalaridan ko'ra shaxsiy fazilatlarini va ijodiy salohiyatiga ko'proq e'tibor qaratadi. Bu hol, ayniqsa, Sulton Mahmud mirzo haqidagi mulohazalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Muallif uning hukmdorlik faoliyati bilan bir qatorda adabiy qobiliyatini ham baholaydi, biroq bu baho tanqidiy ruhda beriladi. Bobur Sulton Mahmud mirzo haqida shunday yozadi: “Tab'i nazmi bor edi, devon tartib qilib edi, vale she'ri bisyor sust va bemaza edi. Andoq she'r aytqondin aytmog'on yaxshiroqdur. Bad e'tiqod kishi edi. Hazrati Xoja Ubaylullo'g'a istixfof qilur edi. Yuraksiz kishi edi. Hayosi kamroq edi. Bir necha masxara va bebok tegrasida bor edi. Devon boshida va xaloyiq qoshida zisht va shani' harakatlar qilurlar edi. Badkalom edi. So'zini filhol anglab bo'lmas edi”[1;26]. Boburning shaxslarga baho berishda nihoyatda xolis va samimiy bo'lgan. Muallif, hatto, o'z amakisi bo'lgan Sulton Mahmud mirzoning ham kamchiliklarini yashirmaydi. U hukmdorning nazmga qiziqishi va devon tuzganini e'tirof etsa-da, she'rlarini badiiy jihatdan sust va ta'sirsiz deb hisoblaydi. Shuningdek, Bobur Sulton Mahmud mirzoning

shaxsiy fazilatlariga ham tanqidiy munosabat bildiradi. Uning e'tiqodi, axloqi va muomala madaniyatiga doir ayrim salbiy jihatlarni sanab o'tadi.

“Boburnoma”da ayrim hukmdor va shahzodalar nafaqat siyosiy faoliyati, balki adabiy va badiiy iste'dodi bilan ham tavsiflanadi. Bobur shunday shaxslardan biri sifatida Boysung'ur mirzo haqida to'xtalib, uning hukmdorlik fazilatlarini bilan bir qatorda ijodiy qobiliyatini ham yoritadi. Muallif Boysung'ur mirzoni quyidagicha tavsiflaydi: “Adolatpesha va odmi va xush tab' va fazilatliq podshohzoda edi. Ustodi Sayid Mahmud shiiy ekandur. Bu jihattin Boysung'ur mirzo ham mat'un edi. So'ngra dedilarkim, Samarqandta ul yomon aqidadin yonib, pok e'tiqod bo'lubtur. Xili chog'irg'a hirs bor edi. Chog'ir ichmas mahalda namoz o'tar edi. Saxovati va baxshishi e'tidol bila edi. Nasxta'liq xatini xili xo'b bitir edi. Naqqoshliqda ham iligi yomon emas edi. She'rni ham tavre aytur edi. “Odiliy” taxallus qilur edi. She'ri devon tartib qilg'uncha bo'lmaydur edi. Bu matla' aningdurkim:

Soyavor az notavoni jo-bajo me o'ftam,

Gar nagiram ro'yi devore zi po me o'ftam.

Tarjimasi: Kuchsizlikdin soyaday u yer-bu yerga tushaman, agar devorni ushlamasam, yiqilaman. Samarqandta Boysung'ur mirzoning g'azallari oncha shoyi'durkim, kam uy bo'lg'ay edikim mirzoning ash'ori ul uyda bo'lmag'ay edi”. Mazkur tavsifdan ko'rinadiki, Bobur Boysung'ur mirzoni ko'p qirrali shaxs sifatida tasvirlaydi. U adolatli, saxovatpesha va xushfe'l hukmdor bo'lish bilan birga xattotlik, naqqoshlik va she'riyat bilan ham shug'ullangan. Garchi Bobur uning she'rlari devon tuzish darajasida emasligini qayd etsa-da, Samarqandda g'azallari keng tarqalganini alohida ta'kidlaydi. Bu esa shahzodaning adabiy muhitdagi nufuzini ko'rsatadi. “Boburnoma”da hukmdorlarning ijodkorlik qirralari bilan bir qatorda, siyosiy voqealar bilan bog'liq she'riy namunalar ham uchraydi. Jumladan, Bobur Samarqandni qo'lga kiritgan voqeani bayon qilar ekan, ushbu g'alaba munosabati bilan yaratilgan ta'rixlardan birini keltiradi:

Boz gufto xirad ki tarixash

Fathi Bobur bahodurast, bidon.

Tarjimasi: Aql yana aytdiki, bilgil: uning ta'rixi “Fathi Bobur bahodur” bo'lur.

Muallif g'alabani sabablarini xolis tahlil qilib, uni faqat shaxsiy jasorat bilan emas, balki siyosiy tajriba, harbiy mahorat va mavjud tarixiy sharoitlar bilan izohlaydi. Shu bilan birga, voqeaning adabiy muhitda ham aks-sado berganini, shoirlar tomonidan ta'rix va madhiyalar yaratilganini qayd etadi.

“Boburnoma”da hukmdorlarning ijodkorlik qirralari bilan bir qatorda, siyosiy voqealar bilan bog'liq she'riy namunalar ham uchraydi. Jumladan, Bobur Samarqandni qo'lga kiritgan voqeani bayon qilar ekan, ushbu g'alaba munosabati bilan yaratilgan ta'rixlardan birini keltiradi:

Boz gufto xirad ki tarixash

Fathi Bobur bahodurast, bidon.

Tarjimasi: Aql yana aytdiki, bilgil: uning ta'rixi "Fathi Bobur bahodur" bo'lur.

Bu she'riy parcha Boburning Samarqandni zabt etishi zamondoshlari tomonidan muhim tarixiy voqea sifatida qabul qilinganini ko'rsatadi. Muallif g'alabani sabablarini xolis tahlil qilib, uni faqat shaxsiy jasorat bilan emas, balki siyosiy tajriba, harbiy mahorat va mavjud tarixiy sharoitlar bilan izohlaydi. Shu bilan birga, voqeaning adabiy muhitda ham aks-sado berganini, shoirlar tomonidan ta'rix va madhiyalar yaratilganini qayd etadi. "Boburnoma"da hukmdorlik va ijodkorlik sifatlarini o'zida mujassam etgan shaxslardan biri Muhammad Shayboniyxonidir. Bobur uning siyosiy faoliyati bilan bir qatorda adabiy qobiliyatiga ham munosabat bildiradi. Biroq Shayboniyxon muallifning asosiy siyosiy raqibi bo'lgani sababli asarda uning obrazi ko'proq tanqidiy ruhda yoritiladi. Bobur Shayboniyxon haqida shunday yozadi: "Agarchi saharxez edi va besh vaqt namozni tark qilmas edi, qiroat ilmini tavre bilur edi, vale mundoq go'lona va ablahona va kofirona aqvol va af'ol andin bisyor sodir bo'lur edi". Ushbu bahodan ko'rinadiki, Bobur uning diniy ilmlardan xabardorligini inkor qilmaydi, biroq amaliy faoliyatida bu fazilatlar yetarli darajada namoyon bo'lmaganini ta'kidlaydi.

Muallif Shayboniyxonning Hirotni egallagandan keyingi ayrim harakatlarini ham tanqid qiladi. Xususan, uning ilm-fan va san'at ahliga munosabati, ayrim siyosiy qarorlari hamda o'zini haddan ziyod ulug'lashga moyilligini salbiy baholaydi. Shu bilan birga, Bobur Shayboniyxonning she'r yozganini ham qayd etadi, ammo uning ijodiga yuqori baho bermaydi: "Yana har necha kunda bir bemaza bayt aytur edi va minbarda o'qutub, Chorsuda osturub, shahr elidin sila olur edi". Biroq Shayboniyxon shaxsiga biryoqlama yondashish to'g'ri bo'lmaydi. Chunki boshqa tarixiy manbalarda unga nisbatan ijobiy qarashlar ham uchraydi. Jumladan, Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahbob" tazkirasida Shayboniyxonni ilm-fan va she'riyat ahliga ehtirom bilan munosabatda bo'lgan, adabiyotga oshno hukmdor sifatida tavsiflaydi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Shayboniyxon devon tartib qilgan shoir bo'lib, uning adabiy merosi bizgacha yetib kelgan. "Boburnoma"dagi Shayboniyxon obrazi hukmdor va shoir sifatlarini birlashtirgan murakkab tarixiy shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Boburning unga bergan baholari esa ko'proq muallifning shaxsiy hayoti va siyosiy taqdiri bilan bog'liq holda shakllanganini ko'rish mumkin. Bu hol "Boburnoma"da hukmdor-shoirlar faoliyatiga baho berishda tarixiy voqelik va muallif munosabati o'zaro uyg'unlashib ketganini ko'rsatadi.

Xulosa. Bobur shoir-hukmdorlarni baholashda bir necha mezonlarga amal qiladi. Birinchidan, shaxsning adabiy iste'dodi va ijodiy salohiyatiga e'tibor beradi. Ikkinchidan, uning axloqiy fazilatlarini, e'tiqodi va insoniy qiyofasini baholaydi. Uchinchidan, davlat boshqaruvidagi faoliyati ham nazardan chetda qolmaydi. "Boburnoma"da Boburning o'ziga xos adabiy-tanqidiy qarashlarini ham aks etgan "Boburnoma"da tasvirlangan Haydar Mirzo, Ahmad Hojibek, Boysung'ur Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo va Shayboniyxon kabi tarixiy shaxslar timsolida hukmdorlik hamda ijodkorlik fazilatlarining

turli ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Bobur ularni baholashda mansab va mavqedan ko‘ra iste’dod, axloq, e’tiqod va ma’naviy kamolot mezonlariga tayanadi. Shu bois asar nafaqat tarixiy voqealar bayoni, balki XV–XVI asrlar adabiy-estetik tafakkurini o‘rganishda ham muhim manba vazifasini bajaradi. “Boburnoma”dagi shoir-hukmdorlar haqidagi mulohazalar Boburning adabiy tanqidchi va zukko kuzatuvchi sifatidagi qiyofasini ham yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bobur. Boburnoma / Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – 368 b.
2. Bobur. Boburnoma / Nashrga tayyorlovchi S. Hasanov. – Toshkent: Sharq, 2002. – 360 b.
3. Qudratullayev H. Boburning adabiy-estetik olami. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – 271 b.
4. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy-tanqidiy qarashlari. – Toshkent, 1993. – 191 b.
5. Zohidov V. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida // Bobir. Boburnoma. – Toshkent, 1960. – 512 b.
6. Vohidov R. Biz bilgan va bilmagan Bobur. Adabiy o‘ylar. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. – 48 b.
7. Ochilov E. Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – 72 b.
8. Rahmonov V. Shoh, adib va shoir. Z.M. Bobur. “Boburnoma” kitobiga muqaddima. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008. – 80 b.
9. Shayxzoda M. Asarlar. 6 jildlik, 5-jild. Zahiriddin Bobir. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1973. – 340 b.
10. Xayriddin Sulstonov. Boburiynoma. – Toshkent: Ma’naviyat, 2019. – 463 b.
11. Valixo‘jayev B. Zahiriddin Muhammad Bobir // O‘zbek adabiyoti tarixi. 3-jild. – Toshkent, 1978. – 384 b.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934